

# “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti



FAN

YERDAN FOYDALANISH EKOLOGIYASI

MAVZU  
01

**Yerdan foydalanish ekologiyasining  
nazariy asoslari**



MUQUMOV ABDUG'ANI  
MURATOVICH



YERDAN FOYDALANISH  
KAFEDRASI



# **1-mavzu: Yerdan foydalanish ekologiyasining nazariy asoslari**

## **REJA:**

- 1.Fanga kirish**
- 2.Yer va yerdan foydalanish ekologiyasi tushunchasi**
- 3.Ekotizimlar: tarkibi, omillari va barqarorligi**
- 4.Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari**

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Tabiat - insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini kondiruvchi manba hisoblanadi. Tabiat - bu moddiy borliqdir. Tabiat va jamiyat bir-biri bilan chambarchas bog'langan yaxlit materiyaning ikki bo'lagini tashkil etadi.

Tabiat va jamiyatning umumiy belgilari bilan bir qatorda o'ziga xos tomonlari ham bor. Butun ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish, inson va uning ongi tabiat qonunlariga bo'ysunadi. Bu borada jamiyat tabiatning bir qismi, uning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradi. Jamiyat va tabiat turli yo'nalishlarda doim muloqotda bo'ladi. Tabiiy muhitsiz jamiyat yashay olmaydi. Hayot insonni tabiat bilan boglaydi. Insonning yashashi uchun zarur bo'lgan barcha narsalar - ozuqa, kiyim, qurilish materiallari va boshqalar tabiatdan olinadi. Fan-texnika taraqqiy etgan hozirgi davrda inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi juda muhim muammolarga aylandi.

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi xalqaro ahamiyatga molik umumxalq ishiga aylandi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida tabiatni muhofaza qilish global, olamshumul ahamiyat kasb etmosda. Tabiat komponentlaridan bi-rontasining buzilishi boshqa bir qancha komponentlar muvozanati va tabiiy ekotizimlarning o'zgarib ketishiga olib kelmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni iloji boricha tiklash davlat ahamiyatiga molik ish bo'lishi bilan birga xar bir insonning muqaddas burchidir. Tabiatni muhofaza qilish deganda butun insoniyat manfaatini ko'zlab, undan oqilona foydalanish, uni saqlash, qo'riqlash va tabiiy boyliklarni ko'paytirish yo'lida davlatlar va xalqlar amalga oshirayotgan tadbirlarning ilmiy jixatdan asoslangan majmuyi tushuniladi.

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Inson bilan tabiat xar doim bir butunlikni tashkil qilib kelgan, chunki inson xam tabiatning tarkibiy qismidir. Suv, havo, tuproq oziq-ovqat, makon bo'lmasa, odamzot yashay olmaydi. Inson o'zining tabiat bilan bo'lgan bevosita aloqasi orqali tabiiy muhitga juda katta ta'sir qilib keladi.

XVII-XIX asrlarda sanoat taraqqiyoti tufayli ko'plab tabiiy resurslar — yer osti boyliklari, qishloq xo'jalik maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, baliq zaxiralari suv va xayvonlardan, o'simlik dunyosidan kengroq foydalanila boshlandi, natijada o'rmonlar maydoni keskin qisqardi. XIX asrning ikkinchi yarmi va asrimiz boshiga kelib kimyo sanoatining rivojlanishi, temir yo'llar qurilishi, dengiz va daryolarda kemalarning paydo bo'lishi, ayniqsa, foydali qazilmalardan tobora ko'proq foydalanish xarakterlidir. Masalan, dunyo bo'yicha cho'yan eritish 1860 yilda 4,2 mln tonnaga teng bo'lgan bo'lsa, 1990 yilga kelib 38 mln tonnaga ko'tarildi. Foydalanilmaydigan chiqindilar, tashlandiqlar, shlaklar, chang, qurum va tutunlarning ko'payishi tabiiy muhitning sezilarli darajada o'zgarishiga va ifloslanishiga sabab bo'ldi. Suv, havo va tuproq muhiti ifloslandi.

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Sanoatning rivojlanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishidan tashqari, yangi muammoni — atrof-muhitning ifloslanishi muammosini keltirib chiqardi. Suv xavzalari, atmosfera, tuproq sanoat chiqindilari bilan kuchli ifloslanib borayotganligi ma'lum bo'lib qoldi. Bular o'simlik va xayvonot dunyosi, shuningdek odamlar sog'ligiga xam kuchli xavf tug'dirmoqda. Bu omil asta-sekin butun yer yuzini o'z ta'siri ostiga olishi XX asr boshlariga qadar juz'iy xarakterga ega bo'dgan bo'lsa, endilikda bu planetaning global muammosiga aylanib ketdi va XX asrning 40 — 50 yillaridan boshlab aniqroq ko'rina boshladi. Yer yuzining biron burchagida insonning tabiatga ta'siri bo'lmagan joy qolmadi. Xatto, Antarktidaning tabiatida xam radioaktiv changlar va DDT pestitsidining borligi, yoqilgi maxsulotlari mavjudligi aniqlandi.

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, turli tabiiy resurslarning hududlar bo'yicha tanqisligi, atrof-muhitning ommaviy miqyosda ifloslanishi natijasida muvozanat bo'zilishi ro'y berdi va tobora keskin tus olib, ekologik sharoitning bo'zilishi uchun real xavf paydo bo'ldi. Bu esa insoniyatning kelajakdagi hayoti va faoliyatini murakkablashtirib yubordi.

Demak bugungi kunda insoniyat sivilizatsiyasining asosi bo'lgan fan va texnika ishlab chiqarish texnologiyalarini tabiiy jarayonlarga nafaqat ijobiy balki salbiy ta'sirini ham uzluksiz hamda jiddiy tarzda ilmiy tadqiq etish zaruriyatga aylangan. Tabiiy muhitning murakkab tizimini idora etish masalalarini optimal tarzda hal etish uchun nafaqat tabiatni tirik va notirik qismlari faoliyatini shu bilan birga ularga inson tomonidan kashf etilgan inshootlar, mexanizmlar, mashinalarni ham bilish zarur.

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Bugungi kunda mutaxassis ekolog olimlar, faylasuflar, sotsiologlar, adabiyotshunoslar, jurnalistlar xatto mashhur san'at namoyondalari ekologiya bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish uni insoniyat uchun muhim hayotiy mezonlarini o'z asarlarida yoritish maqsadida turli xalqaro ilmiy markazlar va yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Xozir dunyo xalqlari sivilizatsiyalararo muloqot asrida yashar ekanlar, insoniyat tafakkurining xosilasi bo'lgan global ekologik o'zgarishlarning va boshqa global ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro aloqadorlikda ro'yobga chiqayotganligiga ham guvoh bo'lmoqda.

Hozirgi vaqtda inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan borayapti. Inson Yer kurrasining qiyofasini o'zgartirishda katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini V.I.Vernadskiy tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi.



## ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР

Insonning tabiiy jarayonlardan noto'g'ri foydalanishi natijasida XX asrning o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotida, hayotda xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisa tushuniladi. (iqlim o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi) tabiatdagi muvozanatning buzilishi oqibatida turli miqyosdagi ekologik muammolar shakllanmoqda. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

**1.Global (umumbashariy)**

**2.Regional (mintaqaviy)**

**3.Lokal (mahalliy)**

Global ekologik muammolar dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen va sof antropogen ta'sirlar natijasida yuzaga kelib umumbashariyatga tegishlidir.

## ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР

Insonning mehnat faoliyati natijasida atrof-muhitga turli chiqindilar chiqariladi. Chiqindilar (qattiq, gazsimon va suyuq)ning bir qismi atmosferaga, boshqasi suvga, yerga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir etib, vaqt mobaynida to'planib boradi. Ularning yillar davomida asta-sekin to'planib borishi turli muammolarni, ba'zan inson hayoti uchun o'ta xavfli muammolarni keltirib chiqarishi endilikda to'liq tasdiqlanmoqda. Quyida mazkur geoekologik muammolarning ba'zilari bilan tanishasiz.

Insonning xo'jalik faoliyati natijasida dunyoda yirik ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Ular quyidagilar: **«*issiqxona samarasi*», *ozon «tuynugi*», *cho'llashish*.**

## ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР

**«Issiqxona samarasi».** Dunyo bo'yicha XX asrning 50-yillaridan boshlab, energiya ishlab chiqarishning keskin ortishi munosabati bilan atmosferaga katta miqdorda chiqindilar chiqarila boshlandi. Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori yiliga 5 mlrd tonnani tashkil qildi. Bu miqdor yil sayin oshib bormoqda. Bu esa yerdagi o'rtacha harorat 1890-yildagi  $14,5^{\circ}\text{C}$  dan 1980-yilda  $15,2^{\circ}\text{C}$  ga, ya'ni 0,7 darajaga ortishiga olib keldi. Mazkur ko'rsatkich yil sayin ortib borish xususiyatiga ega. Bu esa «**issiqxona samarasi**»ning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Olimlarning fikricha, «issiqxona samarasi»ni vujudga keltiruvchi gazlarning hozirgi ortish sur'ati saqlanib qolsa, har 10 yilda harorat 0,2-0,5 darajaga ortib boradi. Bu esa turli ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Dunyo bo'yicha havo haroratining 1-2 darajaga ko'tarilishi natijasida Yevrosiyoda tundra, o'rmon-tundra, tayga, aralash va keng bargli o'rmonlar, o'rmon-dasht va dasht tabiat zonalarining shimolga siljishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Yevropa va Afrikada daryolarning suv oqimi ortadi.

## ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР

**Ozon «tuynugi».** XX asrning 50-yillaridan boshlab, havoda freon gazlarining (xlor, ftor, uglerod) miqdori ko'payganligi kuzatila boshlandi. Bu gazlar 25 km balandlikda joylashgan ozon qatlamini yemira boshladi. Ma'lumki, ozon qatlami quyoshdan kelayotgan zararli ultrabinafsha nurlarini tutib qoladi. Ozon qatlamining yemirilishi natijasida ozon «**tuynugi**» hosil bo'lgan. Mazkur tuynukdan yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarining kirib kelishi donli ekinlar hosilini keskin kamaytirib yuborishi, odamlarning teri raki kasaliga chalinishlariga sabab bo'lishi aniqlangan.

1989-yil 81 mamlakat olimlari, mutaxassislari hamda davlat arboblari qabul qilgan «**Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki Deklaratsiyasi**»da 2020-yilga qadar freon gazlaridan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni kamaytirib borish tadbirlari belgilab berilgan. Natijada so'nggi yillarda ozon «**tuynugi**»ning maydoni qisqarib bormoqda.

## ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР

**Cho'llashish.** Hozirgi paytda cho'llashish jarayoni, ya'ni hosildor yerlarning, yaylovlarning cho'lga aylanishi tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida sodir bo'lmoqda. Tabiiy omillarga asosan qurg'oqchilik kiradi. Masalan, 1968-1974-yillarda Sahroi Kabirning sohil mintaqasida falokatli qurg'oqchilik oqibatida Chad ko'li maydonining 60 foizdan ortig'i, Neger, Senegal daryolari qurib qoldi, namlik yetishmasligi natijasida yaylovlarning mahsuldorligi keskin kamaydi, cho'l 100-150 km ga savannaga bostirib kirdi. Insonning yerdan noto'g'ri foydalanishi natijasida yirik maydonlarda hosildor yerlar cho'lga aylanmoqda.

Hozirgi paytda inson faoliyati ta'sirida 9 mln kv.km maydonda cho'l hosil bo'lgan. Har yili taxminan 21 mln ga yer to'liq buzilib, cho'lga aylanmoqda. Har yili sug'orilayotgan yerlarning 6 mln ga maydoni cho'lga aylanamoqda.

Hozirgi paytga cho'llashishning oldini olish bo'yicha muntazam ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Keniya davlatining poytaxti Nayrobida cho'llashishga qarshi kurashni muvofiqlashtiruvchi tashkilot faoliyat ko'rsatib turibdi.

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Hozirgi vaqtda ekologik muammolar asr muammosiga aylangan. Fan-texnikaning, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, antropogen omillarning tabiatga ta'sirining kuchayishi natijasida biosfera ekotizimlarining buzilishi, cho'llanish va sayyoramizda haroratning oshib borishi kuzatilmoqda. Natijada ekologik muammolarning keskinlashuvi yerdagi hayotga xavf tug'dirmoqda.

Ekologik muammolarga yangicha yondoshuv va uni ilmiy tahlil etishda hozirgi zamon ekologik olimlarning yana uchta bosh yo'nalishini ko'rsatib o'tish zarur. Ular tabiatni muxofaza qilish faoliyatidagi asosiy strategiyasini shakllantiradi. Ular **cheklangan**, **optimallashtirilgan** va **yopiq** sikldagi strategiya yo'nalishlariga ajralgan.

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

**Cheklangan strategiya** tarafdorlari, ekologik falokatlarni oldini olish uchun ishlab chiqarishni hamda unga muvofiq is'temolni cheklash zarur deb hisoblaydilar. Ularning nuqtai nazarlariga ko'ra har qanday ishlab chiqarishni rivojlanishi tabiiy muhitga ijtimoiy bosimni ortishiga sabab bo'ladi. Demak, o'z-o'zidan ravshanki iqtisodiyotni uzluksiz o'sish tendensiyasi ekologik qiyinchilikni yuzaga keltirishi muqarrar. Ushbu strategiya tarafdorlari ekologiyaga zarar keltiruvchi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini zudlik bilan yopish va is'temolni ixtiyoriy ravishda kamaytirishni talab qiladilar.

**Optimallashtirilgan strategiya** nomoyondalari tabiat va jamiyatda me'yorlashgan optimal uyg'unlikni ta'minlash g'oyasini ilgari surib bu uyg'unlikni asosiy omil atrof-muhitni ifloslanishini oldini olish bilan bog'liq deb hisoblaydilar. Borliq shunday bo'lishi zarurki unda tabiat va jamiyatdagi modda almashinuvi atrof-muhitga salbiy ta'sir etmasligi kerak.

## Global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Nixoyat, *yopiq sikli strategiya* tarafdorlari ishlab chiqarishni tashkil etishni (sikli) davriy aloqadorlikda tashkil etish asosida atrof-muhitga zararli ta'sirlarini izolyatsiyalash takliflarini bildiradilar. Shuningdek ular yopiq sikli ishlab chiqarishda biotexnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish zarurligi xaqidagi g'oyalarni ilgari suradilar .

Tilga olingan bu uchta strategik g'oyalari bir-biriga muxolif bo'lmay aksincha biri-ikkinchisini to'ldiradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqoridagi muammolarni yechish uchun vaqt nihoyatda qisqa ayni paytda tabiatga insoniyatning global ta'siri g'oyat shiddat bilan davom etmoqda. Bu butun yer kurrasi ahamiyatiga molik nihoyatda buyuk va bir vaqtning o'zida muammoni yechimini topmoq uchun yuksak aql-tafakkurga ega bo'lgan kishilar intellektual kuchlar va juda katta mablag' talab qiladi. Buning uchun ilmiy tadqiqot ishlari xalqaro ko'lamda olib borilishi lozim bo'ladi.



## O'ZBEKISTONDA YER MAYDONLARIDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI JIDDIY MUAMMOLAR



Iqlimning global o'zgarishi, suv tanqisligi, sug'oriladigan yerlardan surunkali foydalanilmaganligi va yerdan samarali foydalanish bo'yicha nazoratning pastligi natijasida respublika bo'yicha 266 ming gektar sug'oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashib, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi kamayib foydalanishdan chiqib ketgan (2019 y)

**O‘ZBEKISTONDA  
YER  
MAYDONLARIDAN  
FOYDALANISH  
SOHASIDAGI  
JIDDIY  
MUAMMOLAR**

*birinchidan,* 266 ming gektar sug‘oriladigan ekin yerlari tuproqlarining -12,3 ming ga qismi ball-boniteti 30 balldan pastni, 99,6 ming ga qisminiki 31-40 ball, 96,7 ming ga qisminiki esa 41-50 ball, 31,1 ming ga qisminiki 51-60 ball, 4,9 ming ga qisminiki 61-70 ball bo‘lib, ushbu yer maydonlaridan foydalanish va unumdorligini oshirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilmagan

*ikkinchidan,* iqlimning global o‘zgarishi natijasida, ayniqsa 2000-2001, 2008 yillarda bir qator hududlarda jiddiy suv tanqisligi kuzatilib, ekin maydonlari ekilmasdan qarovsiz qolgan va yovvoyi daraxtzorga va butazorga aylangan

**O'ZBEKISTONDA  
YER  
MAYDONLARIDAN  
FOYDALANISH  
SOHASIDAGI  
JIDDIY  
MUAMMOLAR**

***uchinchidan,*** jami 150,5 ming gektardan ortiq yer maydonlari gips qatlamli va o'ta notekis yerlar bo'lib, ularni chuqur yumshatish, kapital tekislash hamda sho'r yuvish ishlari olib borilmaganligi natijasida qishloq xo'jaligi ekinlarini ekishga yaroqsiz holatga kelgan

***to'rtinchidan,*** foydalanilmayotgan sug'oriladigan maydonlardagi 7106 km kollektor-drenaj va 5483 km sug'orish tarmoqlari, 254 ta nasos stansiyalari va 262 ta sug'orish quduqlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlash-tiklash ishlarini bajarish talab etilmoqda

## Respublikadagi global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Muammolar	Muammoni yuzaga kelish sabablari	Oqibatlari	Hal qilish yo'llari
<b>Gidrosferani oqava suvlar bilan ifloslanishi</b>	sifatsiz tozalangan oqava suvlarning tashlanishi, quvurlarning yorilishi yoki sanoat sohasidagi avariya natijasida yuzaga keladi	faunaning nobud bo'lishi, qashshoqlashishi va mutatsiyasi, ekologik muvozanatning buzilishi, aholining ichimlik ehtiyojlarini qondirish uchun yaroqli suv ta'minoti sifatining pasayishi.	Ko'p bosqichli oqava suvlarni tozalash tizimini ta'minlash, mavjud suv tozalash tizimlarini o'z vaqtida modernizatsiya qilish va ta'mirlash, chegaralar va avariya uchun ekologik to'lovlar
<b><u>O'rmon (daraxt)lar kesilishi</u></b>	Avtomobil va temir yo'llarni qurish, quvurlarni, elektr uzatish liniyalarini yotqizish, sanoat va turar-joy qurilishi, yog'ochni qayta ishlash sanoati	O'simlik va hayvonot dunyosining nobud bo'lishi va qashshoqlashishi, karbonat angidridning ko'payishi va kislorod chiqishining kamayishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, hududning botqoqlanishi, iqlim barqarorligining pasayishi	<u>Buzilgan yerlarning rekultivatsiyasi va o'simliklar ekish, daraxt kesish qoldiqlarini utilitatsiya qilish, ekologik to'lovlar va jarimalar</u>
<b><u>Yerlarning asossiz xaydalishi, tuproqning buzilishi va eroziya</u></b>	Mineral <u>o'g'itlardan me'yoridan ortiq foydalanish, samarasiz dehqonchilik, bitta hududda ketma-ket chorma mollarini boqish</u>	<u>Yerlarning cho'llanishi, daryo va suv havzalarining sayozlashishi, tuproq unumdorligining pasayishi, o'simlik va hayvonlar turlarining kamayish</u>	Tuproqning texnik va biologik meliorativ holatini yaxshilash, tuproq eroziyasini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish, zax qochirish zovurlari, himoya to'g'onlarini yaratish.



## Respublikadagi global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

<p><b>Mineral xom-ashyolardan nomajmuaviy foydalanish</b></p>	<p>Sovutgich qurilmalarida ishlatilgan freonning parchalanishi, raketalarning koinotga uchirilishi</p>	<p>Yer biosferasini va odamlarni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlarining zararli ta'siridan himoya qilish</p>	<p>Raketalar uchirilishini tartibga solish, sovutish qurilmalarida sovutgichdan foydalanishda xladegent moddasidan foydalanishni taqiqlash</p>
<p><b>Kislotali yomg'irlar</b></p>	<p>Vulqonlar otilishi, o'rmon yong'inlari, neft-kimyo, kimyo va energetika sanoati chiqindilari, avtomobil transportining ishlashi</p>	<p>Ochiq suv havzalarining oksidlanishi, baliq va qushlarning o'limi va mutatsiyasi, o'simliklarning toptalishi, inson salomatligining yomonlashishi.</p>	<p>Korxonalarda zamonaviy atmosfera chiqindilarini filtrlash tizimlarini joriy etish, elektr transportiga o'tish</p>

## Respublikadagi global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

<p style="text-align: center;"><b>Issiqxona samarasi</b></p>	<p>neft, metallurgiya, kimyo va ko'mir zavodlari, transport vositalaridan foydalanish natijasida atmosferaga zaharli chiqindilar chiqishi, o'rmonlarni kesish, qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan foydalanish</p>	<p>Okeanlar va dengizlarda haroratning oshishi, muzliklarning erishi, ekotizim muvozanatining buzilishi, tabiiy ofatlar xavfining oshishi, iqlim zonalarining o'zgarishi</p>	<p>Sanoatda ko'mir va xom neftdan foydalanishni qisqartirish, chiqindilarni alohida yig'ish va chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini qurish, avtomobillarni muqobil yoqilg'iga o'tkazish bilan yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, yirik shaharlarni ko'kalamzorlashtirish.</p>
<p style="text-align: center;"><b>Tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish</b></p>	<p>Fakellarda neft gazini yoqish, daryolarning yuqori oqimidagi botqoqlarni quritish, kimyoviy chiqindilarni nazoratsiz saqlash, qurg'oqchil hududlarda ortiqcha sug'orish, og'ir qishloq xo'jaligi texnikasidan intensiv foydalanish, ruxsat etilmagan joylarda o'tlash, jarliklar yonbag'irlaridagi daraxt va butalarni kesish, tepaliklar, tog'lar va daryo qirg'oqlari</p>	<p>Tuproq unumdorligining pasayishi, daryo va ko'llarning sayozlashishi, tuproq va yer osti suvlarining ifloslanishi</p>	<p>Jarliklar, adirlar, tog'lar va daryo qirg'oqlari yonbag'irlariga daraxt va butalar ekish, korxonalarda qayta ishlanadigan suv ta'minoti tizimidan foydalanish, dalalarni tomchilatib sug'orish, chiqindilarni utilitatsiya qilish uchun ixtisoslashtirilgan poligonlar yaratish</p>
<p style="text-align: center;"><b>Flora va faunaning ko'p xilligining qisqarishi</b></p>	<p>O'rmonlarni kesish, brakonerlik, yangi aholi punktlari va ularning Hayotini ta'minlash ob'ektlarini yaratish, o'g'itlardan ortiqcha foydalanish, tuproq va suvning ifloslanishi, atmosferaga zaharli moddalarning chiqarilishi</p>	<p>Oziq-ovqat zanjirining sezilarli darajada buzilishi, iqlim Barqarorligining o'zgarishi, biosferaning tiklanish qobiliyatining yo'qolishi</p>	<p>Milliy bog'lar va qo'riqxonalar tashkil etish, noyob o'simlik va hayvonlar Turlarini muhofaza etiladigan reyestrgra kiritish, gen-irsiyat banklarini yaratish, brakonerlik uchun nazoratni kuchaytirish va jarimalarni oshirish.</p>

## Respublikadagi global ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

<b><u>Ichimlik suvining defitsiti</u></b>	Suv havzalarining ifloslanishi, suv omborlarini qurishi, qishloq xo'jaligida, sanoat ishlab chiqarishida samarasiz foydalanish, aholi ehtiyojlarini qondirish.	<u>Odamlar, hayvonot va o'simlik dunyosi uchun yashash sharoitlarining yomonlashishi va eng og'ir holatlarda - ularning halok bo'lishi</u>	<u>Tashkilotlar va uylarda iste'mol qilinadigan suvni hisobga olish, suvni tozalash tizimlaridan foydalanish, suv omborlarini qurish</u>
<b><u>Havoning zaharlanishi</u></b>	<u>Qattiq, suyuq va gazsimon yoqilg'ilarning yonishi, sanoatning barcha turlarining texnologik ishlab chiqarishi, ayniqsa neft qazib olish, neft-kimyoy va gaz qazib olish, energiya ishlab chiqarish, metallurgiya, avtomobil transportida chiqindilarni yoqish.</u>	<u>Ifloslovchi tarkibiy qismlarning yalpi chiqindilarining ko'payishi, havo sifatining yomonlashishi, o'simliklar, odamlar va hayvonlar salomatligiga salbiy ta'sir</u>	<u>Ishlab chiqarishda chiqindi gazlarni tozalash, korxonalarni gaz yoqilg'isiga o'tkazish, avtomobilsozlikda gibriddvigatellar va muqobil yoqilg'i manbalarini yaratish, korxonalarga limitdan ortiq va tasodifiy chiqindilar uchun ekologik to'lovlar va jarimalar</u>



## Kislotali yomg'ir nima?

**Yuzaga kelishi.** Bugungi kunda aholining o'sishi va boshqalar. Ta'sir natijasida iste'molni ko'paytirishga ehtiyoj energiya ishlab chiqarish va sanoat faoliyati natijasida ifloslantiruvchi moddalar miqdorini oshiradi. Yaratilgan ifloslantiruvchi moddalar atmosferada tashiladi, turli reaksiyalar natijasida o'zgaradi va mos meteorologik sharoitda yog'ingarchilik bilan erga tushadi. Kislotali yomg'ir deb ataladigan bu ifloslanish butun hayotga ta'sir qiluvchi salbiy oqibatlarga olib keladi va yomg'ir, qor, tuman, shudring va zarralar shaklida erga etib borishi mumkin.

**Ta'siri.** Kislota ta'siri tuproq tomonidan neytrallanadi, ammo tuproqning neytrallash effekti etarli emas, chunki yuqori havo ifloslanishi kislota miqdoriga bevosita ta'sir qiladi. Bu tuproqning biologik va kimyoviy xususiyatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shunday qilib, o'rmon, ekin maydoni va boshqalar. o'simliklarning yo'q qilinishiga olib keladi. Agar ular suvga tushib qolsa, u kislotalilik darajasini oshiradi va er osti / er usti suv resurslarining ifloslanishiga olib keladi va suv ekotizimlarida hayotiy faoliyatni yomonlashtiradi.





## XULOSA

Shunisi ma'lumki, yer sharining ekologik vaziyati o'tgan asrga nisbatan misli ko'rilmagan darajada o'zgarishga ulgirishi bilan bir qatorda avlodlarning chinakamiga qarg'ishiga sabab bo'luvchi muammolarni ham vujudga keltirdi. Garchi ushbu hodisalar dunyo hamjamiyatini global ekologik muammolar to'g'risida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish, tadqiqotlar olib borish va bu muammolarni bartaraf etish borasida amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishga undab kelayotgan bo'lsa hamki, ko'pchilik mamlakatlar va millatlar bu muammolarning ko'lami shabadasini seza olishmayapti yoxud ular o'zlarini mutlaqo xabarsizdek tutishmoqda. **Ming afsuski, bugungi holat shunday!**

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Bundan roppa-rosa 10 yildan so'ng dunyo manzarasi qanday bo'lishi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?
2. Insoniyatning hayot kechirish tarzi qay tarzda o'zgarishi mumkinligi haqida-chi?
3. Hozirgi an'analarimiz qay darajada o'zgarishi mumkin deb hisoblaysiz?
4. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan va yuz berib bo'lgan muammolarga yechim topish, ularni oqilona hal qilish kabi masalalarga qay darajada ahamiyat berib kelinmoqda?
5. Bu mavzuda shunchaki reja va konsepsiyalar ishlab chiqilib, konferensiya mavzusi sifatida qarab kelinmoqdammi?
6. Global ekologik o'zgarishlarning salbiy oqibatlarini nimalarda aks etadi?
7. Sizing fikringizcha **ekologik muammolarning** ildizi qayerda?

# Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha tavsiya qilinadigan adabiyotlar

## Asosiy adabiyotlar:

1. Баратов П. Табиатни муҳофаза қилиш. Т.: «Ўқитувчи», 1991, 254 б
2. Константинов В.М. Экологические основы природопользования / В.М. Константинов, Ю.Б. Челидзе. – М.: Академия, 2001. – 208с
3. Мустафоев С, Ортиқов С, Сувонов Р. Умумий экология. Т.:2006.

## Qo'shimcha adabiyotlar :

4. Полищук О.Н. Основы экологии и природопользования: учебн. пособие. / О.Н. Полищук. - СПб.: Проспект Науки, 2011. – 144 с.
5. P.S.Sultonov.Экология va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. «MU SIQA » nashriyoti.2007,-240 b

## Internet resurslari:

[1.http://www, Ziyonet. Uz/.](http://www.Ziyonet.Uz/)

[2. http:// www, guz. Ru/](http://www.guz.Ru/)

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!!!



Muqqumov Abdug'ani  
Muratovich



“Yerdan foydalanish”  
kafedrası



+ 998 945811900



[a.mukumov@tiame.uz](mailto:a.mukumov@tiame.uz)



@Abdugani Muqumov

## O'tilgan mavzularni takrorlash uchun nazorat savollari

"Ko'pchilik foydalanishga yaroqli suvimiz tugashini bilmaydi, 2030-yilga kelib suvga bo'lgan talab va mavjud bo'lgan suv ta'minoti o'rtasida 40 % tafovut bo'ladi. Suv muammosini hal qilish uchun bizda bor-yo'g'i 15 yil bor xolos", deydi Jahon iqtisodiy forumining yosh global yetakchisi Mina Guli.